# BALIQCHI TUMANI GEOGRAFIK O'RNI HAMDA QISHLOQ HO'JALIGI

**Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi**
*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Baliqchi tumaning qishloq xo'jaligi, dehqochiligi, chorvachiligi va fermer ho'jaligi iqtisodiyoti, mahsulotlarining hajmi, o'sish suratlari va xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushikabi ma'lumotlar keng yoritilgan. Shu bilan birga qishloq ho'jaligida band aholi haqidagi ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Baliqchi tumani, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, qora mollar, mlrd.so'm, mahsulot hajmi, o'sish surati, band aholi.*

***Аннотация.*** *В данной статье широко освещены сведения о сельском хозяйстве, фермерстве, животноводстве и фермерском хозяйстве Балыкчинского района, объемах продукции, картинах роста, а также доле скота и птицы в количестве категорий хозяйств. При этом была затронута и информация о численности населения, занятого в сельском хозяйстве.*

***Ключевые слова:*** *Балыкчинский район, сельское хозяйство, земледелие, животноводство, черные товары, млрд сумов, объем производства, картина роста, занятое население.*

***Abstract.*** *This article widely covers information about agriculture, farming, livestock and farming in the Balykchy region, production volumes, growth patterns, as well as the share of livestock and poultry in the number of farm categories. At the same time, information about the number of people employed in agriculture was also touched upon.*

***Key words:*** *Balykchy district, agriculture, farming, livestock farming, ferrous goods, billion soums, production volume, growth pattern, employed population.*

**Kirish:** Andijon viloyatidagi tuman hisoblanadi. Viloyatning shimoliy-g'arbiy qismida. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Namangan viloyatining Norin tumani va Andijon viloyatining Izboskan, Shahrixon, Oltinko'l, Bo'z, Ulug'nor tumanlari bilan chegaradosh. Mayd. 0,34 ming km$^2$. Aholisi. 211 300 mingdan ziyod. Baliqchi tumanida 2 ta shaharcha (Chinobod va Baliqchi) va 8 qishloq fuqarolari yig'ini (Olimbek, Bo'ston, Guliston, Oxunboboyev, Siza, Xo'jaobod, Eski Haqqulobod, O'rmonbek) bor. Markazi — Baliqchi shaharchasi.

Tuman, asosan, paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan. Tumanda 6 sanoat korxonasi bor. 2 mexanizatsiyalashgan Ko'chma aksiyadorlik jamiyati bo'lib, biri suv inshootlari qurish va yangi yerlarni o'zlashtirish bilan shug'ullanadi, ikkinchisi xo'jaliklararo qurilish boshqarmasi. Bo'rdoqchilik bazasi, Baliqchi va Chinobod mashina traktor parklari mavjud. Tumanda Baliqchi matlubot aksiyadorlik jamiyati, Chinobod matlubot aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatadi. Tumanda 1 ta qo'shma korxona, mingdan ortiq kichik va xususiy korxona mavjud. Bulardan eng mashhurlari: „Muhammad“ savdo va i.ch. firmasi, „Nargiz“ firmasi, „Navro'z — 9“ savdo i.ch. firmasi, Chinobod fermer xo'jaligi.

**Asosiy qism:** Tuman hududidan Qoradaryo, Mazgilsoy, Chinobodsoy va Katta Andijon kanali oqib o’tadi. Tuprog’i o’tloqi bo’z, kuchsiz sho’rlangan tuproq. O’simliklardan sho’ra, shuvoq, momaqaymoq, qamish, mingdevona, yantoq, ajriq, yulg’un, oqbosh, otquloq, qirqbo’g’in, g’umay, qo’ypechak, yalpiz o’sadi. Echkemar, toshbaqa, tulki, quyon, ilon, kaltakesak, qushlardan laylak, o’rdak, chumchuq, so’fito’rg’ay, qarg’a, musicha yashaydi.

Aholisi, asosan o’zbeklar; ruslar, tatarlar, tojiklar, uyg’urlar va boshqalar ham yashaydi. 1 kilometr kvadratga 416 kishi to’g’ri keladi. Xo’jaligi. Tuman, asosan, paxtachilik va g’allachilikka ixtisoslashgan.

Xo‘jaliklar chorvachilik, bog‘dorchilik, pillachilik, polizchilik, sabzavotchilik va sholikorlik bilan shug‘ullanadi. Q. x.da sug‘oriladigan yerlar 23,0 ming ga, ekinzorlar 19,0 ming ga, shu jumladan 11,3 ming ga yerga paxta, 6,0 ming ga yerga bug‘doy, 0,3 ming ga yerga sabzavot, 0.05 ming ga yerga kartoshka, 1,3 ming ga yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. B. t.da 19 jamoa va shirkat xo‘jaligi, 525 fermer xo‘jaligi bor. Xayrixon Ergasheva nomidagi, „Chinobod“, „Paxtakor“, „O‘zbekiston“. A. Mo‘minov nomidagi. „Bo‘ston“, Ulug‘bek nomidagi shirkat xo‘jaliklari tumandagi yirik va mashhur xo‘jaliklardir.

Tumanda 6 sanoat korxonasi bor: Baliqchi noto’qima matolar ishlab chiqarish aktsiyadorlik jamiyati, Alisher Navoiy nomidagi Interneyshnl O’zbek-Amerika qo’shma korxonasi, Chinobod paxta tozalash aktsiyadorlik jamiyati, Baliqchi noto’qima matolar ishlab chiqarish aktsiyadorlik jamiyati korxonasining ip o’rash tsexida sport buyumlari ishlab chiqarish aktsiyadorlik jamiyati, Baliqchi non ishlab chiqarish aktsiyadorlik jamiyati, “Baliqchi tongi” aktsiyadorlik jamiyati. 2 mexanizatsiyalashgan ko’chma aktsiyadorlik jamiyati bo’lib, biri suv inshootlari qurish va yangi yerlarni o’zlashtirish bilans hug’ullanadi, ikkinchisi xo’jaliklararo qurilish boshqarmasi. Bo’rdoqchilik bazasi, Baliqchi va Chinobod mashina traktor parklari mavjud.

Tumanda Baliqchi matlubot aktsiyadorlik jamiyati, Chinobod matlubot aktsiyadorlik jamiyati faoliyat ko’rsatadi. Tumanda 1 ta qo’shma korxona, mingdan ortiq kichik va xususiy korxona mavjud. Bulardan eng mashhurlari: “Muhammad” savdo va ishlab chiqarish firmasi, “Nargiz” firmasi, “Navro’z — 9” savdo ishlab chiqarish firmasi, Chinobod fermer xo’jaligi. Xo’jaliklar chorvachilik, bog’dorchilik, pillachilik, polizchilik, sabzavotchilik va sholikorlik bilan shug’ullanadi. Qishloq xo’jaligida sug’oriladigan yerlar 23,0 ming gektar, ekinzorlar 19,0 ming gektar, shu jumladan 11,3 ming gektar yerga paxta, 6,0 ming gektar yerga bug’doy, 0,3 ming gektar yerga sabzavot, 0.05 ming gektar yerga kartoshka, 1,3 ming gekar yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. Baliqchi

tumanida 19 jamoa va shirkat xo'jaligi, 525 fermer xo'jaligi bor. Xayrixon Ergasheva nomidagi, "Chinobod", "Paxtakor", "O'zbekiston". A. Mo'minov nomidagi. "Bo'ston", Ulug'bek nomidagi shirkat xo'jaliklari tumandagi yirik va mashhur xo'jaliklardir. Baliqchi tumani 2000 yilda qariyb 40 ming tonna paxta, 45 ming tonnadan ziyod bug'doy topshirib, shartnoma rejasini ortig'i bilan bajardi.

Tuman jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida 37,9 ming qoramol, 26,7 ming quy va emki, 70,1 ming parranda boqiladi. Yaqin temir yo'l stantsiyasi — Haqqulobod (tuman markazidan 29 kilometr). 1999/2000 o'quv Hayrixon Ergasheva nomidagi shirkat xo'jaligining paxta dalalarida yilida 52 umumiy ta'lim maktabi bo'lib, 32,7 ming o'quvchi, 1 gimnaziyada 252 o'quvchi, 1 akademik litseyda 207 o'quvchi, 1 maxsus maktab internatda 250 o'quvchi, 2 kollejda 1200 o'quvchi, 1 iqtisodiyot liseyida 251 o'quvchi ta'lim oldi. Madaniyat saroyi, Markaziy kutubxona, musiqa maktabi, 50 ommaviy kutubxona, 13 madaniyat uyi, ijodkorlar uyi, 2 ko'chma klub, 740 o'rinli 4 kasalxona va dispanser, 10 qishloq ambulatoriyasi, 42 tibbiyot punkti bo'lib, ularda 250 vrach, 1996 nafar o'rta ma'lumotli tibbiy xodim ishladi (2000). 1932 yildan "G'alaba" tuman gazetasi chiqadi (adadi 3000).

**Xulosa:** Baliqchi tumani ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan viloyatda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan tuman bo'lishiga qaramasdan bu tumanda xam bartaraf qilish lozim bo'lgan muammolar yo'q emas va bu muammolar yuqorida aytilganidek, asosan aholining yashash sharoitiga bevosita ta'sir qiluvchi ijtimoiy sohalarda o'z aksini topmoqda. Ma'lumki, mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishi xozirgi yosh avlodni sog'lom, baquvvat va ilmli bo'lishiga bog'likdir. Chunki, yoshlarimiz ertangi kunning bunyodkor kuchi, qurilajak fuqarolik jamiyatining faol a'zosidir. Baliqchi tumani makroiqtisodiyotni mehnat resurslari bilan ortiq darajada ta'minlash darajasi mavjudki, bu ish joylari bilan ishchi kuchi o'rtasidagi nomutanosiblikka olib keladi. Jumladan kelgusida dolzarb muammolardan biri tumanda bo'sh ish o'rinlari yaratish va yoshlarga zamonaviy turdagi kasblarga o'qitish masalasiga jiddiy yondashish talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhayyo, D. (2017). THE ROTOR CONSTRUCTION OF COTTON RAW IN APPEARING VERTICAL BOUNDARY. Интернаука, (9-2), 76-78.
2. Davlatova, M. K. (2021). The process of transformation of philosophy understanding as factor of information culture of the period of the English renaissance (XVI c.). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 949-957.

3. Davlatova, M. X. (2018). The easy way of learning English with the help of songs. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 578-581.
4. Давлатова, М. Х. (2021). The Expression of resultative and depictive constructions in english and uzbek languages. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).
5. Давлатова, М. Ҳ. (2021). Результативликнинг аспектуал тадқиқотлар доирасида ўрганилиши. Scientific progress, 2(2), 1678-1683.
6. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. Cross-Cultural Studies: Education and Science, 5(1), 61-67.
7. Давлатова, М. (2020). Aspectual and lexico-semantic classification of verbs. Сўз санъати халқаро журнали, 1, 2020.
8. Давлатова, М. Х. (2018). Работа над видеотекстом на занятиях английского языка. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 242-246.
9. Hasanovna, D. M. (2022). On the interrelationship of resultive and causative meanings. World Bulletin of Public Health, 9, 212-215.
10. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verbs. Open Access Repository, 8(2), 116-121.